

Uzbekistan Airways Mineralniye Vodiga parvozlari sonini oshirmoqda

2022 22 Aprel

“Uzbekistan Airways” AJ Toshkent – Mineralniye Vodi – Toshkent xalqaro yoʻnalishi boʻyicha parvozlari sonini oshirilishini maʼlum qildi. Ayni paytda aviaqatnovlar muntazam ravishda yakshanba kunlari amalga oshirilmoqda, 2022-yil 4-maydan boshlab ular chorshanba kunlari ham amalga oshirila boshlaydi.

Toshkent – Mineralniye Vodi yoʻnalishi boʻyicha aviachipta narxi 1 800 553 soʻmdan (bagajsiz) va 1 960 909 soʻmdan (bagaj bilan), Toshkent - Mineralniye Vodi - Toshkent yoʻnalishi boʻyicha esa aviachipta narxi 3 440 873 (bagajsiz) soʻmdan, 3 773 192 soʻmdan (bagaj bilan) boshlanadi.

Narxlar 22.04.2022 holatiga koʻra amal qiladi.

Aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy saytidan www.uzairways.com, Uzbekistan Airways Salesfilialidan yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilib olish mumkin.